

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING KOMPITENTLIGINI KO‘TARISH

Xoshimova Nargiza

Fan va texnologiyalar universiteti 203-B.T 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ahillik, birdamlikning bolalar uchun qanchalik muhimligi to‘g‘risidadir. Hozirgi kunda ham boshlang‘ich ta’limimizda katta yutuqlarga erishilmoqda.

Kalit so‘zlar: Davr, ota-onas, tarix, farzand, o‘g‘il bola, sog‘lom, ahillik, o‘qituvchi.

KIRISH.

Avvalo kompitentlik nima ekanligini bilib olsak. Kompitentlik-ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atamadir. Bunda inson vaziyatga qarab fikr bildirishi, o‘zi qaror qabul qila olishi, qarorlar ishlab chiqishda ishtirok etish imkonini beradi. Demak biz kompitentlikni bolalarda rivojlantirishda uning mohiyatini ham oldindan ko‘ra olishimiz zarur. Ruhiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, inson fe’l-atvorining 80 foizi u 5 yoshgacha bo‘lgan davrda shakllanib bo‘lar ekan. Ana shu davrda ota-onaning tarbiyatagi e’tibori, oilaviy muhitning sog‘lomligi, farzand kamolida katta ahamiyat kasb etadi. Ota-onas bo‘lish katta mahoratdir. G‘azablanishimiz kerak bo‘lganda vazmin bo‘lishimiz, xafa bo‘lishimiz zarur mahalda esa tabassum qilishimiz kerak bo‘ladi. Ota-onalar farzandlariga “Sen bilan faxrlanaman” deyishlari farzand tarbiyasidagi eng munosib xatti-harakatdir. Oilaviy munosabatlarda rostgo‘ylik, sadoqatlilik, samimiylilik, bir-biriga munosabatlarda shirih so‘z bo‘lish bolaning tarbiyasiga ijobiy ta’sir etadi.

Qadim tariximizni o‘rganar ekanmiz, ajdodlarimiz o‘z farzandlariga 3 yoshdan ta’lim-tarbiya bera boshlashganligiga guvoh bo‘lamiz. Bolalar jismoniy chiniqtirilgan, ularga astranomiya, matematika, tarix, geografiya eng asosiysi "Qur’on o‘rgatilgan. Ularga arab tili, fors tili o‘rgatib borilgan. Ular yana hunar o‘rganganlar. Tarixdan ma’lumki, oilani asosan erkaklar ta’minlaganlar, ular askarlar, xarbiylar bo‘lib, yurtni himoya qilganlari sababli, ularning farzandlari ham juda tartibli bo‘lishgan. Yana madrasalarda ham o‘g‘il bolalar ta’lim olishganligi ham bizgacha yetib kelgan manbalardan ma’lum. O’sha davrlarda ham o‘g‘il bolalarning qobiliyatlariga alohida ahamiyat berilgan. Ularni jismonan sog‘lom, aqlan raso, jasur, mard yigitlar bo‘lib yetishshlarida bilimlari, ko‘nikmalarni rivojlantirib borishni maqsad qilib olishgan.

Nizomiddin Shomiyning "Amir Temur tuzuklari", Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlarida ham sohibqiron sarkarda, bunyodkor, ulug‘ inson, barcha masalalarga odilona yondashib yechim topa olgan buyuk amir Amir Temur farzandlariga, nabirasiga qilgan o‘gitlari o‘rin olgan. Farzandlarning aqli-zakovatli bo‘lishlarida ularga biriktirilgan enagalarning hamma narsaga xolisona yondashishlari, mehr-oqibatda ham me’yorli bo‘lishlari bolalarning kelajakda o‘z o‘rnini topa olishlarini belgilab bergen. Albatta, farzandlarni otaliqqa olgan oilalarning nasl-nasabi, halolligi, muomalasi hisobga olingan.Otaliqqa olingan bolalarni o‘z farzandlari bilan bir xilda ko‘rishlari, rostgo‘ylik, mehnatsevarlikka o‘rgatishlari bilan ham yuqori nufuzga ega bo‘lganlar. Amir Temur kelajak avlodlarga davlatni boshqarishda adolatli bo‘lishlarini, islom diniga suyanishlarini, halolik-poklikka riosa qilishlarini nasihat qilganlar, o’sha davrdagi nasihatlar hozirgi kunimizga ham to‘g‘ri kelmoqda. Keyingi avlodlarimizdan Behbudiyning avlodlariga kamida 4 tilni o‘rganing, degan nasihatlari ham hozirgi tezkor zamonamizga to‘g‘ri kelib, o‘z isbotini topmoqda.

METODOLOGIYA

Hozirgi davrlarda ham farzand tarbiyasi alohida ahamiyatga egadir. Farzandlarimizni o‘z fikriga ega, bir so‘zli, mard, vataniga sadoqatli, adolatparvar etib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin menimcha ahillik, do‘stlik, birdamlik

ham muhimdir. Bolalarning kompitentligini oshirishda ertaklardan foydalanish mumkin. Har bir ertak ortida bir haqiqat yotadi. Masalan, ahillikning yo‘qligi sababli bir dehqonning uyida doimo janjal bo‘laverar ekan. Bir kuni dehqon o‘g‘illarini to‘plab, 1 donadan xivich berib sindirishlarini buyuribdi, o‘g‘llari qiyalmay bajarishibdi. Dehqon singan xivichlarni to‘plab, bir butun qilib o‘g‘illariga beribdi, hech qaysi o‘g‘il uddalay olmabdi.

-O‘g‘illarim! -debdi dehqon, oila ham shu xivichlarga o‘xshaydi. Agar siz ham jipslashib, ahil yashasangiz, hech nima sizni mag‘lub qila olmaydi, aks holda parokandalik sizdan ustun kelib, barchangizni halok etadi.(Ezop masali) Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini birlashtirishda ular birlashishsa katta kuch bo‘lishlarini, birlariga suyanishlari kerakligini ta’kidlab borish-boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining vazifalaridir. Biz hozirda amaliyot o‘tayotgan Chilonzor tumanidagi 200-I.D.U.M mактабда hurmatga sazovor ustozlar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini berib kelmoqdalar. Boshlang‘ich 1"E"-sinf o‘qituvchisi Iroda ustozning bolalarga bergen motivatsiyasini siz bilan o‘rtoqlashaman: "Kim bilimli?", "Biz!" "kim al’ochi?" "biz!", "kim uddalay oladi?", "biz!" kabi so‘zlar bilan doimo qo‘llab-quvvatlab turadilar. O‘quvchilar sinfga kirgan ustozlarga alohida hurmat ko‘rsatishadi: Assalomu alaykum, xush kelibsiz ustoz!". Shovqin ko‘tarila boshlasa 1,2,3 deya sanay boshlaydilar. Jim-jitlik. Yoki bo‘lmasa daftar tekshira boshlaganlarida "tun" deydilar, bolajonlar boshlarini parta ustiga qo‘yib dam ola boshlaydilar, ustoz oxirigi qatordagi daftarlarni ham tekshirib baholab oladilar. Yana bir usullari: sinfda 37 o‘quvchi bor. Har biri ustozining sevimli o‘quvchisi bo‘lishini xohlashadi, ustozning qo‘llarida o‘rtacha kattalikda quti. -Sizlarga kimni yaxshi ko‘rishimni aytaman, lekin sinfdoshlariningizga aytib qo‘ymaysiz, kelishdik-a bolajonlar? -deya o‘quvchilarni birma-bir chaqira boshladilar. Bolalar qiziqib, tortinib borishadi, quti ichiga qarashar ekan bir zum tek qotishadi, keyin yuzlariga tabassum yugurib joylariga o‘tirib olishadi. Ular birlariga oxirigacha aytishmadi, sababi ustozlari iltimos qildilar. 37 o‘quvchi ham joyiga kelib o‘tirdi. Xo‘s, ustozning eng sevimli o‘quvchisi kim ekan? Ustoz bu savolni bolalarga berdilar: qani bolajonlar men kimni yaxshi ko‘raman? -Meni, meni!

Barcha o‘quvchilar ustozini quchoqlab oldi. Amaliyotga ko‘rayotganlarimiz, bolalarning bir-birlariga samimiyligini munosabatlari, hazillari, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari ustozlarning berayotgan ta’lim-tarbiyasi mahsulidir. Hozirgacha olgan ta’surotlarimdan xulosa yasar ekanman, men ham o‘z fikr-mulohazalarimni keltirib o‘taman: bizning yurtimizdagi o‘zbekona mintalitetimizga "men" emas, "biz" ko‘proq to‘g‘ri kelar ekan. Sababi—"bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun!" degan shiorimiz bejiz yaratilmagan.

XULOSA

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarda bir-biriga ishonch, bir-birini suyashni o‘rgatib, amalda ko‘rsatib borsak, "Kuch-ahillikda" ekanligini uqtirib borsak, kelgusida shu tarbiyani olgan bolalarimiz yurtimizni dunyoga tanitadigan insonlar bo‘lib etishadilar. Chet mamlakatlar tajribalari ham doimo o‘z o‘rniga ega bo‘lib kelgan. Lekin bizning qo‘llaydigan metodlarimiz asosan bolalar tarbiyasi, ahloqi va bilimini rivojlantirishga qaratilgandir. Kelajakda bizning metodlardan ham chet mamlakatlar o‘rganib, albatta qo‘llashadi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amir Temur jahon tarixida. -Toshkent:Sharq, 2006.
2. Fayziyev T. Temuriy malikalar. Toshkent, 1994.
3. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / So‘zboshi, tabdil, izohlar va ko‘rsatkichlar mualliflari Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov.- Toshkent: Sharq, 1997. Zafarnoma. Toshkent, 1997.
4. O‘ljayeva SH. Amir Temur davlat boshqaruvi. Toshkent, Akadmashr, 2017.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/amir-temur-saltanatida-sog-lom-avlod-tarbiyasi-masalalari>
6. <https://oyina.uz/uz/teahause/319#>
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/farzand-tarbiyasi-haqida-ogitlar.html>